



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI "DAVLAT TILI HAQIDA"GI QONUNING IZOHLI VA ENSIKLOPEDIK LUG'ATLARDA TAHLILI

Ibodullayev Saidmuhammad Rahmatulla o'g'li

SamDU Yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi

+99899211-27-77

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 22nd June 2022

Online: 25th June 2022

KEY WORDS

millat, til, davlat tili, millatlararo muomala tili dialektika, dialektik kategoriya

ABSTRACT

Maqolada ona tilimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzi yuksalganligi, ko'plab davlatlarda o'zbek tili mutaxassislik fani va ikkinchi til sifatida o'qitilayotgani ham "Davlat tili haqida"gi Qonunning jahoniy e'tirofi kundankunga o'sib borayotganini ko'rsatayotganligi, "Davlat tili haqida"gi Qonunning to'liq amal qilishini ta'minlash vaqt va har birimizdan sa'y-harakat talab qiladigan vazifa ekanligi ilmiy asoslab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli asari mumtoz ma'naviyatimizning tom ma'nodagi qomusi o'laroq yuzaga kelganligi ayni haqiqatdir. Unda qalamga olingan mavzular

1. Ma'naviyat – insonning ulg'ayish va kuch-qudrat manbaidir (Ma'naviyatni anglash. Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar. Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi).

2. Mustaqillik – ma'naviy tiklanish va yuksalish (Milliy g'oya va ma'naviy hayot. Ma'naviyat va jamiyatning yangilanishi. Islohotlar va ularning ma'naviy mezoni).

3. Ma'naviyatga tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid (Globollashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar. Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya).

4. Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori (Inson qalbiga yo'l eng buyuk jasorat) –

ma'naviyat deb atalgan ilohiy ne'matning yaxlit konsepsiyasi sifatida maydonga kelgan va o'zining qomusiy-fundamental talqinini topgan, ma'naviyatning eng buyuk jasorat ekanligi chuqur asoslab berilgan. "Yer yuzidagi buyuk o'lmas obidalar, - deb yozadi Yurtboshimiz, - insoniyat hayotini tubdan o'zgartirib yuborgan jamiki ulug' kashfiyot va ixtirolar, mumtoz san'at va adabiyot durdonalari, mardlik va qahramonlik namunalari odamzotning aql-tafakkuri, salohiyati va ma'naviy jasorati mahsulidir. Shuning uchun ham bu yorug' olamda eng buyuk jasorat nima, degan savolga, hych ikkilanmasdan, eng buyuk jasorat – bu ma'naviy jasorat, deb javob bersak, o'ylaymanki, yanglishmagan bo'lamiz".

Kitobda qahramonlik tushunchasiga berilgan ta'rifga ham e'tibor beraylik: "Ko'pchilik qatorida, faqat vaziyat taqozo etadigan taqdirda maydonga otilib chiqish, qahramonlik ko'rsatish – albatta, bu ham oson emas. Buning uchun ham insonda



katta yurak, g'ayrat-shijoat, eng muhimi o'ziga, o'zining kuch-qudratiga mustahkam ishonch bo'lishi kerak.

Lekin menga buyursa, har kuni, har soatda fidoiy bo'lish, o'zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish – haqiqiy qahramonlik aslida mana shu, deb aytgan bo'lardim.

Nega deganda, kundalik hayotda jonkuyar bo'lish, har kuni fidoiylik ko'rsatish, ruhan hyech qachon bukilmay, bu fazilatni hayot qoidasi darajasiga ko'tarish, ochiq aytish lozimki, bu hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun insonga buyuk qalb va metin iroda kerak, desam, o'ylaymanki, yangishmagan bo'laman".

Shuningdek, ushbu kitobda o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlikning til orqali namoyon bo'lishi, jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singishi, ona tili – bu millatning ruhi, milliy tilni yo'qotmoq millatning ruhini yo'qotmoq ekanligi, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasida qizg'in, ba'zan keskin va murossasiz bahs-tortishuvlar bo'lib o'tgani, og'ir-vazminlik bilan ish tutib, barcha siyosiy va ijtimoiy guruhlar talablarini qondiradigan, eng muhimi, xalqimiz va Vatanimiz manfaatlariga javob bera oladigan yagona to'g'ri yo'lni topishga erishilgani, nihoyat 1989 yilning 19 oktyabrida, qariyb bir yarim asrlik qaramlikdan so'ng mamlakatimizda o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilingani, muqaddas qadriyatlarimizdan biri bo'lmish ona tilimiz o'zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo'lgani buyuk ma'naviy jasorat

hosilasi o'laroq maydonga kelgani o'tmish va bugungi voqeyeliklar misolida g'oyat chuqur asoslab berilgan.

Ilmiy manbalarda til davlat ramzimi, degan savol ko'p uchraydi va ularda berilgan javoblar, asosan, salbiy xarakterda. Prezidentimizning quyidagi so'zlari bu kabi, oddiy qilib aytganda, do'lvor, hadiksirab aytilgan fikrlarga g'oyat asosli javob bo'lishi barobarida, ona tilimizning nufuzini yuksak darajaga ko'targan metodologik dasturulamal hamdir: "1992 yil 7 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlab qo'yildi. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, majhiyasi, Konstitusiya qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi".

Ma'lumki, ittifoq davrida davlat tili rasman e'lon qilinmagan, bunday til vazifasini bajarish turli nomlar (millatlararo muomala tili, rasmiy til, ikkinchi ona tili va sh.k.) bilan atalgan, mohiyatan davlat tili vazifasini bajargan rus tili zimmasiga yuklatilgan bo'lgan. Shuning uchun o'sha davr manbalarida ham davlat tili tushunchasi uchramaydi. Bu mavzu faqat istiqloq tufayli, O'zbekiston Respublikasida davlat tili maqomi rasman ta'sis etilgandan keyingina ayrim qonunlar sharhlari va lug'atlariga ham ko'chdi.

O'zbekiston Respublikasining 1989 yil 21 oktyarda qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi Qonuni preambula va 30 moddadan iborat edi. "Preambula"da til millatning ulkan boyligi va bebaho mulki, millatlararo munosabatlarni takomillashtirish, milliy tillarni har tomonlama rivojlantirishni taqozo etishi, ushbu qonun o'zbek tilining davlat tili



sifatida amal qilishining huquqiy asoslarini belgilab berishi, Qoraqalpog'iston ASSR tilga oid barcha masalalarni o'zi hal qilishi, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublikada yashovchi boshqa millat va elatlarning o'z ona tillarini qo'llashdan iborat Konstitusion huquqlariga monelik qilmasligi, mazkur Qonunning norasmsiy muomalada, harbiy qismlarda va diniy marosimlarda qo'llnadigan tillarsha tatbiq etilmasligi qayd etilgan.

Endi lug'atlarda davlat tili haqida berilgan ma'lumotlarni kuzatamiz.

"Davlat tili, - deyiladi "Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at"da, - tegishli davlatdagi umumiy rasmiy til. Shu yerning o'zidayoq "davlat tili" bilan "rasmiy til" tushunchalari farqlanmaganligi ko'zga tashlanadi. Holbuki, bu terminlar boshqa-boshqa tushunchalarni ifodalaydi. Ta'rifda keltirilgan "umumiy rasmiy til" tushunchasi ham lug'atda izohlanmagan. Shuningdek, mazkur lug'atda davlat tili, odatda uch yo'l bilan belgilanadi, deyilgan. Bular: "a) tarixiy an'ana asosida ushbu davlat hududida istiqomat qiluvchi barcha xalqlar mavjud tillardan birini umum-til deb tan oladilar; bunday til, ko'pincha, shu davlatdagi eng yirik yoki hukmron millatning tili bo'ladi; b) hukumat, prezident, parlament yoki rahbar organlar tomonidan davlatning rasmiy tili deb e'lon qilingan xalqaro yoki jahon tillaridan biri. ...; v) davlatning qonun chiqaruvchi organi tomonidan yoki mamlakat prezidenti tomonidan jamiyat hayotining barcha sohalarida qo'llanishi kerak deb e'lon qilingan til". Shundan keyin lug'atda qator mamlakatlarda hyech qaysi til davlat tili deb e'lon qilinmagani, chunki ularda mamlakat aholisining ko'pchiligini tashkil qiluvchilarning tili davlat tili deb tan

olinishi, "B" guruhiga kirgan davlatlar, asosan, o'tmishdagi mustamlakalar ekanligi, "V" guruhidagi davlatlarga asosan, sobiq SSSR tarkibida shakllangan mustaqil davlatlar kirishi, Boltiqbo'yi mamlakatlarida davlat tilini bilish majburiy ekanligi qayd etilgan. Lug'atda MDH mamlakatlarida davlat tili uch xil tartibda hayotga tatbiq etilayotgani ko'rsatilgan: a) davlat tili majburiy ravishda hamma joyda istisnosiz singdirilayotgan davlatlar (Estoniya, Latviya, Litva); b) davlat tili asta-sekin, zarur vaziyatlarda boshqa tillardan ham foydalanib, hayotga singdirib borish siyosatini amalga oshirayotgan davlatlar (Ukraina, Moldaviya, O'zbekiston va b.); v) tub yerli aholi salmog'ining nisbatan kamligi, uning milliy hududda ko'pincha tarqoq yashashi, ustiga-ustak zamonaviy mutaxassislarining yetishmasligi kabi otmillar ta'sirida rus tilini ham mohiyatan davlat tili darajasiga ko'tarishga majbur davlatlar (Qozog'iston, Qirg'iziston). Quyidagi mulohazalar ham mazkur lug'atda davlat tiliga doir berilgan ma'lumotlar ancha mukammal ekanligidan dalolat beradi. Unda, jumladan, mustaqillikni qo'lga kiritgan davlatlar uchun davlat tili siyosatini amalga oshirish istibdod davrining oqibatlari va sarqitlari bilan samarali kurashishning zaruriy sharti ekanligi, davlat tilini o'zlashtirish, uni boshqa tillarda so'zlashuvchilar orasida yoyish vaqtni, sabr-toqatni, izchil mehnatni talab qilishi, davlat tiliga munosabatni o'zgartirish, ommada o'z milliy tiliga nisbatan bo'lgan hurmat va qiziqish hissini uyg'otish va mustahkamlash, rusiyzabon aholida davlat tiliga nisbatan befarqlik, begonalik hissini sabr-toqat, kundalik izchil faoliyat bilan bartaraf etish, davlat tili bo'yicha darslik, lug'at, o'quv qo'llanma nashr etishni ta'minlash, keyingi ishlar



hozircha sust ekanligiga holisona baho berilgan.

Professor U.Tadjixanov umumiy tahriri ostida chop etilgan “Yuridik ensiklopediya”da davlat tili tushunchasiga qisqa, lo’nda ma’lumot berilgan. Qiyoslang: “DAVLAT TILI – davlat aholisi ko’pchiligi yoki asosiy qismining ushbu davlatda konstitusiya asosida davlat tili sifatida belgilangan tili. O’zR Konstitusiyasi 4-moddasiga muvofiq, O’zRning butun hududida o’zbek tili davlat tilidir. Davlat tili O’zRning davlat hokimiyati organlarida, mahalliy o’z-o’zini boshqarish idoralarida, davlat muassasalarida asosiy til sifatida ishlatiladi. Davlat tili rasmiy til hisoblanadi. Davlat tilidan foydalanish va uni qo’llash tartibi O’zRning “O’zRning davlat tili to’g’risida” gi qonuniga o’zgartirishlar va qo’shimchalar kiritish haqida”gi 1995 yil 25 dekabr qonuni bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunga muvofiq 1989 yil 21 oktyabrda qabul qilingan Qonunning yangi tahriri tasdiqlangan”.

N.Toychiyev mas’ul muharrirligida chop etilgan “O’zbekiston yuridik ensiklopediyasi”da esa davlat tili davlat hokimiyati organlari, muassasalari, korxonalar va tashkilotlarining rasman ish yuritish tili, muayyan mamlakatda qonun chiqarish, ijro etish va sud hokimiyatlari faoliyatida, maktab, o’rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida ta’lim berish uchun rasmiy belgilangan til, O’zR Konstitusiyasining 4-moddasiga muvofiq O’zRning davlat tili o’zbek tili ekanligi, Qoraqalpog’istonda bunday maqom qoraqalpoq tiliga ham berilganligi qayd etilgan. Unda davlat tili haqidagi Qonunning asosiy o’rinlari o’z ifodasini topgan.

Xullas, O’zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni inson

huquqlari Butunjahon deklarasiyasi asosida yozilganligi, demokratik tamoyillarga bemaol javob bera olishi bilan davlat tiliga va milliy tillarga xolisona munosabatning yaqqol namunasi sifatida ko’z oldimizda gavdalanadi. Uning talerant xarakterda ekanligi ham ushbu fikrimizning inkor etib bo’lmaydigan dalilidir. Zero, unda davlat tilini asta-sekinlik bilan, vaziyat taqozo etganda boshqa tillardan ham foydalanib ish ko’rish siyosati ustuvordir. Chunonchi, mazkur Qonunning dastlabki tahririda rus tili millatlararo muomala tili sifatida rasmiylashtirilgan bo’lsa, uni keyingi tahririda millatlararo muomala tilini belgilash fuqarolarning hohishlariga ko’ra tanlanishi qayd etilgan. O’ylaymizki, ushbu Qonunning keyingi tahririda bunga ham ehtiyoj qolmaydi. Chunki “davlat tili” moqomining o’zida “millatlararo muomala tili” tushunchasi mavjud.

O’zbekiston Respublikasida davlat tili haqida Qonun qabul qilingan vaqtdan buyon o’tgan davr mobaynida ona tilimizga bo’lgan munosabat tubdan o’zgardi, muhtaram Prezidentimiz so’zlari bilan aytganda “mazkur Qonun davlat idoralarida ishlash, ta’lim olish, mansab lavozimlari bo’yicha ko’tarilish, fuqarolik singari masalalarda odamlarning huquq va erkinliklarini kamsitadigan turli shartlar va “senz”lardan xoli ekani bilan jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilgan talab va qoidalarga to’liq javob berar edi”.

Ona tilimizning xalqaro maydondagi obro’-e’tibori va nufuzi ham yuksaldi. Ko’plab davlatlarda o’zbek tili mutaxassislik fani va ikkinchi til sifatida o’qitilayotgani ham mazkur Qonunning jahoniy e’tirofi kundan-kunga o’sib borayotganini ko’rsatadi. Muhimi – o’zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi qonun



va Konstitutsiya yo'li bilan mustahkamlanganligidir. Qolgan ishlar, ya'ni davlat tili haqidagi Qonunning to'liq amal qilishini ta'minlash vaqt va har birimizdan sa'y-harakat talab qiladigan vazifadir.

Izohli va yuridik ensiklopedik lug'atlarda davlat tili tushunchasining

talqiniga kelsak, ta'kidlash joizki, hali bu borada qilinishi kerak bo'lgan ishlar ko'p. Ona tili, milliy til, davlat tili, davlat tili maqomi, rasmiy til, millatlararo muomala tili kabi termin va tushunchalarni obyektiv ta'riflash va sharhlash dolzarb vazifalarimiz sirasiga kiradi.

References:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Davlat va millat ramzlari. Davlat tili haqida. O'quv qo'llanma-majmua. Tuzuvchi: prof. N.Jumaxo'ja. –T.: Fan, 2008.
3. O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasining Qonuni. O'zbekiston SSRning Davlat tili haqida (O'n birinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 11-sessiyasida 1989 yil 21 oktyabrda qabul qilingan)// Davlat va millat ramzlari. Davlat tili haqida. O'quv qo'llanma-majmua. Tuzuvchi: prof. N.Jumaxo'ja. –T.: Fan, 2008. –B.9-17.
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Davlat tili haqida (yangi tahrirda)// Davlat va millat ramzlari. Davlat tili haqida. O'quv qo'llanma-majmua. Tuzuvchi: prof. N.Jumaxo'ja. –T.: Fan, 2008. –B.32-35.
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharhlar. Mas'ul muharrir yu.f.d., professor A.A.Azizxo'jayev. –T.: Ma'naviyat, 2008. –B.32-35.
6. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va Q.Xonazarov umumiy tahririda. –T.: Sharq, 1998.
7. Yuridik ensiklopediya. Prof. U.Tadjixanovning umumiy tahririda. –T.: Sharq, 2001.
8. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Mas'ul muharrir N.Toychiyev. –T.: Adolat, 2009.